



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 42 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovo Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQUISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	

OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI

Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna

O'zJOKU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası o'qituvchisi,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Elektron pochta: mahbuaburieva6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahallalarda jinoyatchilik va huquqbuzarlikka moyil bo'lgan muammoli oilalarning psixologik holati, ularning ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'lish shakllari hamda oila-turmush muhitida voyaga yetmaganlar orasida jinoyatlarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi shaxs xulq-atvorining psixologik determinantlari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida so'rovnoma va kuzatuv metodlari asosida olingan natijalar oilaviy ziddiyatlar, muloqotdagi buzilishlar va qadriyatlar tizimidagi dissonanslarning voyaga yetmaganlar xulqiga ta'sir mexanizmini ochib beradi.

Kalit so'zlar: jinoyat, huquqbuzarlik, psixologik holat, oila, nizo, ziddiyat, muloqot, bola, qadriyat, tadqiqot, ijtimoiy muhit.

Abstract: This article examines the psychological characteristics of problematic families within local communities that display tendencies toward crime and delinquency. It analyzes the forms of manifestation of psychological states among family members and explores behavioral and personality factors influencing the emergence of juvenile delinquency within family life. Based on survey and observational data, the study reveals how intrafamilial conflicts, communication breakdowns, and value dissonance contribute to deviant behavior among minors.

Key words: crime, delinquency, psychological state, family, conflict, contradiction, communication, child, values, research, social environment.

Аннотация: В статье исследуются психологические особенности проблемных семей, склонных к правонарушениям и преступному поведению в махаллях. Рассматриваются формы проявления психологического состояния членов таких семей, а также личностно-поведенческие характеристики, влияющие на возникновение преступлений среди несовершеннолетних в рамках семейно-бытовых отношений. На основе анкетирования и наблюдения анализируются механизмы влияния внутрисемейных конфликтов, коммуникативных нарушений и ценностных рассогласований на поведение подростков.

Ключевые слова: преступление, правонарушение, психологическое состояние, семья, конфликт, противоречие, общение, ребёнок, ценности, исследование, социальная среда.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda fuqarolarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlarida belgilangan strategik yo'nalishlarga



asoslanib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalla fuqarolar yig'inlari, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi bugungi kunda nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham ko'rilmoqda. Chunki jinoyatchilikning ildizida, ko'pincha, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonidagi buzilishlar, oilaviy muhitdagi tanglik, qadriyatlar tizimidagi dissonans hamda psixologik beqarorlik kabi omillar yotadi. Shu nuqtai nazardan, jinoyatchilikka moyillikni kamaytirish uchun faqat jazo choralari emas, balki ijtimoiy va psixologik profilaktika mexanizmlarini ham ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar huquq-tartibotni mustahkamlash, jinoyatchilik bilan bog'liq vaziyatni barqarorlashtirish, shuningdek, jamiyatda huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish imkonini berdi. Ayniqsa, mahalla tizimida "profilaktika inspektori" instituti faoliyatining takomillashuvi, muammoli oilalar bilan psixologik ishlash tizimining yo'lga qo'yilishi, voyaga yetmaganlar bilan individual ishlash mexanizmlarining joriy etilishi ijobiy natijalar bermoqda.

Mazkur jarayonlar jinoyatchilikni kamaytirish bilan birga, ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirish, oilaviy tarbiyada mas'uliyatni kuchaytirish, yoshlar ongida qonuniylik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli, oila doirasida, ayniqsa, muammoli oilalarda kechayotgan psixologik jarayonlarni o'rganish, ularning voyaga yetmaganlar xulq-atvoriga ta'sirini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda jinoyatlar soni oshib bormoqda, 2024 yilda respublika bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlarning soni 132 298 tani tashkil etdi, 2023 yilga 104096 tani tashkil etgan edi. Ro'yxatga olingan jinoyatlar 2023 yilga nisbatan 28202 taga yoki 27,1 foizga ga ko'paygani aniqlandi. Ushbu davrda jinoyat darajasi 10 ming aholiga nisbatan 35,6 tashkil etdi, ushbu ko'rsatkich 2023 yilda 28,3 bo'lgan.

So'nggi to'rt yil davomida (2021-2024 yillar) qayd etilgan jinoyatlar soni 21 216 taga yoki 19,1 % ga ko'payish tendenziasini kuzatildi. Shu bilan birga, 2024 yilda 2023 yilga nisbatan 27,1 % ga, 2022 yilga nisbatan esa 27,6 % ga oshgan.

Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra: ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarga bo'linadi.

Jinoyatlar dinamikasi tahliliga ko'ra o'ta og'ir jinoyatlar soni 5357 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,1 % ga oshgan, og'ir jinoyatlar soni esa 2,4 marta oshgan bo'lsa, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar 33,4 % ga va ijtimoiy xavfi kam bo'lmagan jinoyatlar soni esa 14,4 % ga kamaydi.

Qonunchilikka ko'ra, jinoyatlar iqtisodiyot sohasidagi, tinchlik va xavfsizlikka qarshi, harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi, hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi, shaxsga qarshi, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi, ekologiya sohasidagi jinoyatlar bo'limlariga ajratiladi.


TADQIQOT METODLARI

Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarning kelib chiqishiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxsning hulq-atvoridagi xususiyatlarini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqot so'rovnoma o'tkazish orqali amalga oshirildi. Tadqiqotda 20 yoshdan 41 yoshgacha bo'lgan 80 nafar respondent ishtirok etdi. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 28 foizi erkaklar, qolgan 72 foizi ayollar tashkil etadi. Yosh tarkibi quyidagicha: 20-25 yoshgacha bo'lganlar – 28,75 foiz, 26-30 yoshdagilar – 23,75 foiz, 31-35 yoshdagilar – 15 foiz, 36-40 yoshdagilar – 18,75 foiz, 41 yosh va undan kattalar 15 foiz. Oilali respondentlar – 53,5 foizni, turmush qurmaganlar – 34,5 foizni, ajrashganlar – 6,2 foizni, bevalar – 5,8 foizni tashkil etdi. Shuningdek, ma'lumot darajasiga ko'ra 37,2 foiz respondentlar oliy, 13,1 foizi o'rta va 3,6 foizi esa tugallanmagan oliy ma'lumotga egalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning asosiy natijalariga ko'ra respondentlar bugungi kunda oila-turmush doirasidagi kelishmovchiliklar oqibatida oilada asosan oila a'zolari bir-biriga qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish (32,1 foiz) jinoyatini ta'kidlashgan, bundan tashqari o'zini o'zi o'ldirish darajasiga olib borishi (26,8 foiz), zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish (3,6 foiz), bezoriliklar (8,9 foiz) kabi jinoyat turlari sodir etilayotganini ham sanab o'tishgan;

Shuningdek, oila-turmush doirasida yuqoridagi jinoyatlarining sodir etilish sabablari o'rganilganda mazkur qotillik jinoyatlarning 60,7 foizi murosaga kelishmaganligi oqibatida, 14,3 foizi rashk tufayli, 3,6 foizi mol-mulk talashish oqibatida, 3,6 foizi o'ch olish maqsadida hamda 17,8 foizi boshqa sabablar oqibatida yuzaga kelgan (1-rasm)



1-rasm. Bugungi kunda sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari foizda

2024 yilda jinoyat sodir etganlarning yoshi bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, qayd etilgan huquqbuzarlarning umumiy sonida eng katta ulushni 31 yosh va undan katta yoshdagi fuqarolar – 56,7 % (33 969 nafar)ni tashkil etsa, 18-30 yosh – 37,7 % (22 618 kishi), 15-17 yoshlilar orasida kichik nisbatlar – 5,0 % (2 998 kishi), 13-14 yoshlilar – 0,6 % (366 kishi)dan iborat.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o'tmish va hozirda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Voyaga yetmaganlar orasida aniqlangan jinoyat sodir etgan shaxslar soni tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning soni 2023 yilning shu davriga nisbatan 235 kishiga kamaygan.


2024 yilda huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar soni 3 364 nafarni tashkil etib, ularning umumiy sonidan 5,6 % ini tashkil etdi. Tahlillar viloyatlar bo'yicha voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlarning 8,9 % ini (300 nafar) qiz bolalar tomonidan sodir etilganini qayd etdi.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida 2023 yilning shu davriga nisbatan jinoyat sodir etganligi aniqlangan voyaga yetmaganlar soni 6,5 % ga, 2022 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan esa 8,1 % ga kamaygan.

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning eng ko'p ulushi Toshkent shahriga (580 kishi), Farg'ona (594 kishi), Namangan (375 kishi) va Toshkent viloyatlariga (342 kishi) to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, Xorazm (45 nafar), Sirdaryo (61 nafar) va Jizzax (69 nafar) viloyatlarida eng kam huquqbuzarlik sodir etgan voyaga yetmaganlar qayd etilgan.

Voyaga yetmagan shaxslar 1521 ta o'g'irlik, 356 ta bezorilik, 113 ta firibgarlik, 187 ta talonchilik va bosqinchilik, 106 ta qasddan badanga og'ir shikast yetkazish, 47 ta tovlamachilik, 7 ta qasddan odam o'ldirish jinoyatlarini sodir etgan.

Oilada sodir etilayotgan jinoyat va huquqbuzarliklardan asosan voyaga yetmaganlar jabr ko'rishmoqda (80.3 foiz), ayni paytda oilaviy zo'ravonlikdan ayollar (14.3 foiz) ham jabr ko'rayotgani ma'lum bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Oila-turmush doirasidagi jinoyatlarda jabr ko'rayotgan toifalar

Qonunbuzarlik sodir etayotgan voyaga yetmaganlar asosan ota-onasi tomonidan beriladigan e'tibor va mehrning yetishmasligi (46 foizi), bolaning ehtiyojlarini haddan tashqari qondirish (26 foiz), ota-onasini ichkilikbozlikka berilgani (18 foiz), oilada muntazam ravishda janjal va nizolar kelib chiqadigan nosog'lom oilada yashashi (10 foiz) turtki bo'lmoqda.

Respondentlar oilada kelib chiqadigan zo'ravonlikning asosiy sabablari sifatida er va xotin o'rtasidagi yomon munosabatlarni (28 foiz), ishsizlik (25 foizi) hamda ichkilikbozlik (23.2 foizi) sanab o'tishgan. Shuning



bilan birga oila hayotiga qarindoshlarning aralashuvi (12.5 foiz) va oiladagi moliyaviy muammolar (11.3 foiz) ham turtki bo'loyotgan ekan. Oila a'zolari o'rtasida o'zaro mehr-muhabbatning kamligi, bir-birini qo'llab-quvvatlashning yo'qligi, ota-onaning farzand tarbiyasida mas'uliyatsizligi, qo'pollik, g'ayriijtimoiy xulq-atvor kabi omillar oilada kriminogen vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Respondentlar zo'ravonlikka uchragan holatda 67,8 foizi huquqni muhofaza qilish organlariga, 21,4 foizi qarindoshlariga, 3,6 foizi do'stlariga murojat qilib yordam so'rashsa, qolgan 7,1 foizi hech qayerga murojat qilishmasligini aytib o'tishgan. Tahlildan ko'rish mumkinki, oiladagi zo'ravonlik sodir etilganida jabrlanuvchilarning aksariyati bu haqida huquqni muhofaza qilish organlariga murojat etib, o'zining buzilgan huquq va erkinliklarini tiklashda yordam so'raydi. Biroq, oiladagi zo'ravonlik haqida jabrlanuvchining xech qayerga murojaat etmasligi zo'ravonlikning latentlik darajasi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning ko'pchiligi ijtimoiy hayotda yoki oiladagi zo'ravonlikka duchor bo'lgan yoki undan aziyat chekkanliklarini qayd etishgan. Xususan, oilada haqoratlash, so'kinish bo'lganligini 66 foiz respondent ta'kidlashgan bo'lishsa, 20 foizi esa tarsaki tushirilgani, turtkilash va tepilish holatlari bo'lganligini aytib o'tishgan, 14 foizida musht yoki boshqa jism bilan urush holatlari bo'lgan.

Oila-turmush sharoitida jinoyat sodir etayotgan shaxslarda o'ziga ishonmaslik (26 foiz), jahli tez chiquvchi (15 foiz) va tez xulosa qiluvchi (13 foiz), tajavozkorlikka moyillik (19 foiz), ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi (24 foiz), huquqiy bilim saviyasining pastligi (1.6 foiz), kichik guruhlardan uzoqlashgan (oila, maktab, ishchi jamoa va boshq.) (1.3 foizi) kabi xususiyatlarning bo'lishi namoyon bo'ldi.

Oila-turmush doirasida huquqbuzarlik sodir etuvchi shaxslarning psixologik xususiyatlari ularning 19,4% ma'naviy-axloqiy fazilati pastligi, 15,2% ijtimoiy-ruhiy xususiyati salbiy bo'lgan shaxslarda namoyon bo'ladi. Ayrim huquqbuzar shaxslarning 48% da ruhiy buzulish holatlari mavjud ekanligi kuzatildi.

Oilada jinoyat va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslar oilada zo'ravonlikni 28,4% holatda jabrlanuvchining qilmishiga javob qaytarish maqsadida, 17% o'zining manfaatini ustun qo'yish oqibatida, 13,6% o'ch olish uchun, 12,6% jinoiy niyatini amalga oshirish, 11,6% jabrlanuvchidan qutilish, 14,0% oilada boshqaruvni qo'lga olish, 13,2% boshqalar oldida o'zini namoyish etish, 7,6% esa rashk yoki kuchli hissiyotning ta'sirida sodir etilganligi ma'lum bo'ldi.

Oiladagi jinoyat va huquqbuzarlik 22% holatda bevosita jinoyat sodir etishdan oldin o'zini tajovuzkor xulq-atvorda namoyon etgan, janjal ko'targan, aybdorni va boshqa oila a'zolarini haqorat qilgan, 61% nizoni keltirib chiqqargan, faqatgina 17% holatda jinoiy tajovuz sodir etilgan paytdagi xulq-atvori viktin xarakterda bo'lgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, ko'plab oilalarda otaonalar faqatgina yakshanba kunlari ishdan bo'sh bo'lsada, vaqtini farzandlari tarbiyasi bilan shug'ullanish, oiladagi muammolarni bartaraf etishga ajratish o'rniga turli ko'ngilochar, dam olish maskanlarida vaqtichog'liq qilishga, alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishga hamda oilaga va farzandlariga bepisand munosabatda bo'lishi natijasida oilada o'zaro janjal, notinchliklarning kelib chiqishi kuzatiladi. Bu kabi salbiy holatlarni kamaytirish va jamiyatda oilaning o'rnini yuksaltirish maqsadida haftaning yakshanba kunini respublika miqyosida "Oila davrasi kuni" sifatida e'lon qilish hamda shu kuni respublika bo'yicha oila institutini mustahkamlashga qaratilgan ommaviymadaniy, oilaviy sport tadbirlarini muntazam ravishda tashkil etib borishni yo'lga qo'yish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda shaxslarning nizoli yoki viktin xulq-atvori ularning oila-turmush sohasidagi jinoyatlardan jabrlanishlariga sabab bo'lmoqda yoki muayyan darajada shart-sharoit yaratmoqda. Oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan jinoyatlar tahliliga ko'ra, oila a'zolari o'rtasida o'zaro mehr-muhabbatning kamligi, bir-birini qo'llab-quvvatlashning yo'qligi, ota-onaning farzand tarbiyasida mas'uliyatsizligi, qo'pollik, g'ayri ijtimoiy xulq-atvor kabi omillar oilada kriminogen vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, oilaturmush doirasidagi voyaga yetmagan orasida jinoyatlar va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari suriladi:

Nosog'lom turmush tarzida hayot kechirayotgan oilalar bilan manzilli ishlash bo'yicha mahallalarni 4 ta toifaga "nosog'lom hayot kechiruvi yuqori toifadagi oilalar", "nosog'lom hayot kechiruvi o'rta toifadagi oilalar", "nosog'lom hayot kechiruvi past toifadagi oilalar" va "sog'lom hayot kechiruvchi oilalar" ajratish. Bunda mahallalarni toifalarini yaxshilash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar belgilash.

Ma'muriy hududlarda oila-turmush doirasida zo'ravonlikka duchor bo'layotgan, muntazam ravishda zo'rlikdan jabrlanib kelayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklar ko'paygan hududlarda maqsadi yashiringan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish hamda ushbu qilmishlarning latentligini bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. // Xalq so'zi. –T., 2017 yil. 16 iyun.
2. Qotillik jinoyatlarining har uchinchisi oila-turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan. Senatning o'n uchinchi yalpi majlisi o'z ishini davom ettirmoqda. N.NASRIEV,O'ZA. https://uza.uz/uz/posts/qotillik-zhinoyatlarining-har-uchinchisi-oila-turmush-munosabatlari-doirasida-sodir-etilgan_248385
3. O'zbekiston Respublikasi IIV JXD Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatining 2024 yil yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili.
4. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlar tahlili. <https://stat.uz/uz/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.